

QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI YETISHTIRISHDA SUG'ORISHNING AHAMIYATI

Ergashev Shoxrux Ilhom o'g'li
G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi
maxsus fan katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada qishloq xo'jaligida ekinlarni sug'orish ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi, yer-suv, gektar, maydon, ekin, sug'orish, tuproq, suv.*

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligining eng yirik tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu sohani rivojlantirish maqsadida mulkchilikning yangicha shakllari teng huquqli asosda ravnaq topishini ta'minlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida islohotlarni chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Yurtimizda qabul qilinayotgan qonunlar, Hukumat qarorlari qishloq xo'jaligida yer-suv resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga, sug'oriladigan gektar mahsuldorligini oshirishga imkon bermoqda.

So'nggi yillarda suv resurslaridan tejamkorlik asosida samarali foydalanishga qaratilgan bir qator muhim xujjatlarni qabul qilinganligi va ularning ijrosini bosqichma – bosqich ta'minlab borilayotganligi, kelajakda suv resurslarini kamayib ketishi mumkinligi borasidagi xavfli bashoratlarni chuqur anglagan holda hozirdan tezkor harakatlar boshlanganligini anglatadi. Suvni tejashda nafaqat suvtejamkor sug'orish usullaridan, balki tuproq namligini ekinlar atrofida uzoq vaqt saqlab turishga asoslangan agrotexnologiyalardan ham keng foydalaniladi. Mana shunday agrotexnologiyalardan biri «mulchalash» hisoblanadi. Mulchalash ham dunyo mamlakatlarining qishloq xo'jaligida eng ko'p qo'llaniladigan tadbirlardan biri hisoblanadi. Mulch, bu tuproq namligining bug'lanishini va begona o'tlarning ko'payishini oldini olish uchun qishloq xo'jaligi ekinlarining atrofiga to'shalgan barg xazonlari, somon yoki torf kabi organik moddalardan iborat himoya qoplamasi hisoblanadi. Mulch so'zi nemis tilidagi «molsch» so'zidan olingan bo'lib, yumshoq parchalanish xususiyatiga ega bo'lgan somon va barg hazonlardan yerga mulch sifatida foydalanilishini anglatadi.

So'nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligi koeffitsientini kamaytirish va noto'g'ri (noratsional) ishlatishning eng asosiy sababi - bu ularning samarasiz bug'lanishi va sifati jihatdan yomonlashuvi (insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida). Suvning samarasiz bug'lanishi maishiy va sanoat suv ta'minoti tizimidagi kabi, sug'oriladigan dehqonchilikda ham kuzatiladi. Sug'oriladigan yerlar hududida samarasiz bug'lanish bundan ham ko'p kuzatiladi. Masalan 1 ga paxta

maydonlaridan yer osti suvlari uning darajasiga bog'liq yig'indi bug'lanish 13000 dan 15000 m³ /yil va g'o'zaning suvga bo'lgan fiziologik ehtiyojida 5000 m³ /yil hisoblanadi. Bunda 1 ga g'o'zaning egati bo'ylab yaqin yer osti suvlari (YeOS) sharoitida (1,0.....1,5 m) yig'indi bug'lanishi xuddi shunday maydondagi yer osti suvlari (2,5....3,0 m) sharoitida 5....6 ming m² ga oshadi.

Markaziy osiyoda sug'orish suvlari, sug'orish tarmog'i va sug'orish texnikasining texnik mukammal emasligi tufayli katta yo'qotishlarga uchraydi. Yerda tuz yig'ilishining eng asosiy sababi yer osti suvlarining yaqin joylashishida. Bu sharoitda tuz yig'ilishiga qarshi kurash sug'orishning chayish rejimini qo'llashni talab qiladi. Suv resurslarini samarasiz ishlatish va ularning qishloq xo'jaligi oqimlari bilan ifloslanishini oldini olish uchun ularning sonini qisqartirib, sug'orish tizimining FIK ni oshirish, yerda tuz yig'ilishini kamaytirish lozim. Bunday botqoqlanish quduqlarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi almashtirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi ekinlarini tomchilatib sug'orish tajribasini yo'lga qo'yilishi borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning boshlanish nuqtasini Respublikamiz Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda PQ4919-son qabul qilingan qarorlari negizida ko'rish mumkin. Hukumat qaroriga muvofiq, qiyalik maydonlar, sug'orish eroziyasiga duch kelgan bog'lar va uzumzorlarda ilk o'rinda tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilishini qabul qilingan qaror mazmuni dalolat beradi. Qishloq xo'jaligida joriy etish uchun mazkur zamonaviy suv tejaydigan texnologiya mablag'talab ekani sir emas. Lekin, suv zahiraları kam mamlakatlar uchun suv tejashning eng samarali usulidir. Hatto, Isroilda yo'lga qo'yilgan bu usul orqali meva-sabzavot yetishtirish 60-70 foizga oshgan. O'zbekiston katta miqdordagi suv zahiraları qo'shni mamlakatlardan oqib keluvchi daryo va irmoqlardan keladi. Biroq, qo'shni davlatlar ulkan suv omborlarini qurishlari zamirida respublikamizda keladigan odatiy suv miqdorining kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa, aholisi soninig ko'pligi, hududining aksar qismi sahro dan iborat yurtimiz uchun suv ta'minoti muammosini juqurlashib boraytotgani qishloq xo'jaligida ko'plab muammolarni keltirib chiqarayapdi.

Melioratsiya sohasida bir qator izlanishlardan bilish mumkinkiy, zamonaviy suv tejaydigan texnologiya bo'lmish tomchilatib sug'orishga ketgan xarajatlar o'zini qoplamasligi mumkin. Ammo O'zbekistondek asosiy yer maydoni quruq va havosi issiq mamlakatda tomchilatib sug'orish yordamida juda katta miqdordagi suvni tejali shiga erishilishi mumkin. To'g'ri O'zbekistonda zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etilishi borasida hali o'lgan tajribaga ega emas. Ammo, O'zbek hukumati sekin-asta qaysi mintaqalar va ekinlarni tomchilatib sug'orish mumkinligini o'rganib borishi va uni o'rganishi uchun moliyaviy qo'llanilishi, shu jarayonda esa katta tajriba to'planishi mumkin bo'ladi. Tomchilatib sug'orish usulining o'ziga hosligi suvni bosim ostida o'simlikkacha etkazib berishi bilan belgilanadi. Tomchilatib sug'orish usuli o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga etkazib berishga mo'ljallangan suv taqsimlovchi doimiy tarmoqdan iborat.

Suv xo'jaligini boshqarishning yangicha uslubi suvdan foydalanish sohasiga bozor prinsiplari va mexanizmlarini joriy qilish uchun puxta zam in hozirladi, suv manbai bo'yicha iste'molchilarga ulam ing talablari asosida suvni proporsional ravishda oqilona va tezkor taqsimlash, suvdan rejali foydalanishni ilmiy asosda ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini yaratdi, suv havzasida suv resurslarini tartibga solish va ulardan foydalanishda yagona texnik siyosat o'tkazish, suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirishni ta'minladi.

Sug'orish meyori va sug'orish sonining ko'payishi yer osti suvlari bilan o'simliklarning suv ichishi kamayishi va suv ichmasligi natijasidir. Yer osti va yer usti suvlari yagona suv resurslarini tashkil etadi. Shuning uchun sug'orish meyorlarining ko'payishi hosil uchun suvning qaytmas harakatlarining ko'payishini bildirmaydi. Ular butunligicha kamayadi. Bundan tashqari xattoki sug'orish meyorlarining regional (xududiy) masshtabda nisbatan ko'tarilishi miqdor jihatdan muhim bo'lmaydi.

Birinchidan, yaqin joylashgan chuchuk yer osti suvlari maydoni ancha chegaralangan.

Ikkinchidan, yaqin joylashgan chuchuk yer osti suvlari ko'pincha sun'iy ko'tarilgan sug'orish hisobiga tashkil bo'ladi.

Uchinchidan, subirrigatsiya sharoitlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun barcha bosqichlariga va o'simliklarning barcha navlariga qulay emas.

To'rtinchidan, bu maydonlarda bug'lanish uchun yer osti suvlarini samarasiz yo'qotishi sodir bo'ladi.

Mamlakatimizning iqlim sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida suv resursining ham ahamiyati katta. So'nggi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvga bo'lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Kelajakda suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun sug'orish tizimini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlash, suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarini o'z vaqtida sifatli ta'mirlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish hamda samarali boshqarishga yo'naltirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4486-son Qarori. 2019 yil 9 oktyabr. lex.uz: <http://lex.uz/docs/4545898>

2. Abdug'aniyev A.A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T: "Adib Nashriyoti", 2011. – 400 b.

3. Raximbaev F.M. va boshqalar. "Qishloq xo'jaligida sug'orish melioratsiyasi". Darslik. T. "Mehnat", 1994, 327 bet.
4. Xamidov M.X., Suvanov B.U., Isabaev K.T. Sug'orish melioratsiyasi, Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: TIQXMMI, 2019: -292 b.
5. Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A., Dehqonova N.S., Ahmedova V. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: TDAU, 2015. 174 b.